

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2023-5/4

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2023

Бош муҳаррир:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Таҳрир хайати:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.
Абдуллаева Муборак Махмусовна, б.ф.д., проф.
Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.
Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.
Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.
Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.
Бабаджанов Хушнот, ф.ф.н., проф.
Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.
Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.
Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.
Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.
Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.
Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.
Исмаилов Исҳақжон Отабаевич, ф.ф.н., доц.
Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.
Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.
Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.
Каримов Улугбек Темирбаевич, DSc
Курбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц.
Кутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.
Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.
Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.
Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.
Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.
Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.

Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.
Раззақова Сурайё Раззоқовна, к.ф.ф.д., доц.
Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.
Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д., проф.
Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.
Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.
Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.
Сапарбаева Гуландам Машиариповна, ф.ф.ф.д.
Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.
Сафаров Алишер Каримджанович, б.ф.д., доц.
Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.
Сотилов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.
Тожибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., академик
Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.
Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.
Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.
Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.
Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.
Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.
Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.
Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.
Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.
Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.
Худайбергана Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№5/4 (101), Хоразм Маъмун академияси, 2023 й. – 282 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

МУНДАРИЖА
ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Abatov D. Qashqadaryo xalq dostonlaridagi ba'zi onomastik birliklar tadqiqi	5
Abdullayeva G. O'zbek tilida hurmat kategoriyasi	9
Abulova Z.Z. Characteristics of anthropocentrism in modern knowledge	11
Abduraximova D.F. Badiiy matnlar tarjimasida frazeologizmlarning tarjima muammolari	14
Adilova S., Ergasheva G. Andragogikada o'zbek tili bo'yicha lingvistik kompetensiyalarni takomillashtirish xususida	15
Alibekova R.X., Ashirmatova M.J. Rus va o'zbek tillarida tezaurus leksikografiyasi va terminologiyasi tizimli ma'lumotlar bazasi	18
Almatova Sh. Abdulla Qahhor asarlarida turli xil narsa va predmetlarga o'xshatish	20
Aminova K.E., Begmatova S.M. Conceptualization of the world in the linguocultural aspect	22
Artikova Z.Z. 把 “bā” donabay nom hisob so'zining paydo bo'lish omillari	24
Ashirmatova M., Burxonova G. Qishloq xo'jaligida ruscha-o'zbekcha elektron tezaurusni rivojlantirishning uslubiy jihatlari	27
Avaznazarov O.R. “Hayrat ul-abror” dostoni “basmala”si xususida	28
Babajanova Ya., Obidova L. Indirect and direct translation: the question of originality and adequacy	31
Bakhronova Z.R. Stylistic devices in the work of Khaled Hosseini	33
Baxranova D.U. Koreys frazeologizmlarini o'zbek tiliga tarjima qilish usullari va somatik frazeologizmlarni tarjima qilishdagi muammolar	36
Boymatova D.B. Aksiologik bahoning lingvomadaniy xususiyatlari	38
Djumaniyazova E.K. Terminological words in the language for special purposes	41
Djurayev M.K. Matnni avtomatik qayta ishlashda til birliklarining mosligini o'rganish	42
Elmuratov R. “Hotamtoy” rivoyati syujeti va uning turk folkloridagi epik ifodalari	45
Ergashova R.T. About aviation terms	50
Eshimova Sh.K. Koreys va o'zbek tillarida metaforaning lisoniy tahlil masalasi	54
Ibragimova N.A. Diskurs tushunchasi tadqiqidagi asosiy nazariyalar	57
Irgasheva F.B. Badiiy asarlaridagi milliy-madaniy birliklarning tarjimada aks ettirilishida o'ziga xos tamoyillar	60
Jabborov E. Qodir baxshi Rahimov dostonlaridagi antroponik birliklarning lug'aviy qatlamlari	63
Jumaniyozova M.X., Avazova G.K. Komil Avazning antitezadan foydalanish mahorati	66
Jumanova Sh.I. Peyzaj orqali milliylikning namoyon bo'lish shakllari	68
Karamova Sh.L. She'r tizimida hayotiy tafsilotlarning roli	72
Khairatdinova A.M. The problem of intercultural communication in the work of a translator	74
Khamroeva Sh.M., Matyakubova N.SH. Tabiiy tilni qayta ishlashda aligning o'rni	77
Kimsanboyeva B., Xudoykulova U. “Devonu lug'oti-turk” asarida miqdor ifodalovchi birliklar	80
Kobilova A.B. Tibbiy perifrazalarning shakllanish usullari	82
Komilova N.X. Some questions of translation of author's comparisons	85
Kudratova S.R. Machine translation according to the comparison of google, yandex and collins	87
Kushkarbekova M.U. Navoiy viloyati qozoqlari tilidagi kasbiy leksika	89
Mahmudov R., Alimova N. O'zbek tilidagi afsonaviy qushlar bilan bog'liq mifonimlarning antroposentrik tadqiqi	91
Mamadjanova M.U. Epitet haqida turli qarashlar	95
Matyakubov H. Antroposentrik paradigmada mikrotoponim va makrotoponim tushunchalari talqini	97
Muminova N.A. Amir Temur ismidagi “bek” so'zining lisoniy xususiyatlari	99
Mukhamedova N.A. Ways of modality rendering of atypical interrogative sentences in english language	101
Mustafayeva M.B. Tilshunoslikda modal so'zlarning semantik turlari	103
Nabiyev A.I. The concept of valency in linguistics	106
Nasriyeva G. Analysis of sociological method in the novel “Mehrobdan chayon” by Abdulla Kadiri	108
Nazarov Q. O'zbek va ingliz tillarida inson tana a'zolari bilan bog'liq maqollarning kognitiv-semantik tahlili	110
Nazarova N.A. Onimik leksemalarning o'ziga xos xususiyatlari	113
Nazarova N.B. Ingliz xalq ertaklarida doimiy epitetlarning o'rni	115
Qalandarova D. “O'tkan kunlar” romanidagi o'xshatishlar tahlili	118
Qobilov U.U. Nubuvvat masalasi va uning Navoiy she'riyatida qushlar tamsilidagi talqinlari	119
Qurbonova M.A. Okkazonalizm, neologizm, potensializm hodisasi	122
Ochilova D., Mehmonova D. Tarjima muammolari	124
Olimova D.Z. Mechanism of generating a translation option	126
Rahimbaeva M.D., Kurbaniyazova M.A. O'zbek adabiy matnlarini tarjima jarayonini kognitiv yondashuv asosida o'rganish metodologiyasi	129
Raimova N.B. Place of translation among the means of interlingual communication	131
Rashidova F. Ingliz adibi Charlotta Brontening «Sherli» asarida «ayol va jamiyat» mavzusi aks ettirilishi	133
Razzakov B.A. Linguistic competence as a component of language education non-philological students	136
Ruziyeva N.Z. Evfemizm va sinonimiya munosabati xususida	138
Pulatova S.Sh., Vohidova M.N. The motif of the short story “A marriage of convenience” by Somerset Maugham	140
Saatova S.I. Badiiy matnda yozuvchi lisoniy shaxsining namoyon bo'lishi	142

9. Розикова Г.З. Махмуд Кошғарий “Девону луғотит турк” асаридagi от лексемаларнинг функционал-семантик ва услубий хусусиятлари. Фарғона, 2021.

10. Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Тошкент. Тошкент: Фан, 1960-1963.

11. Сафаров Ф. Ўзбек тилида сон-миқдор микромайдони ва унинг лисоний-нутқий хусусиятлари: Филол. фанл. ном. дисс. Самарқанд – 2004.

UO'T: 811.512

TIBBIY PERIFRAZALARNING SHAKLLANISH USULLARI

A.B.Kobilova, katta o'qituvchi, Phd, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiy perifrazalarning shakllanish omillari jumladan metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi usullar orqali hosil bo'lishi xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, tibbiy perifrazalar mazmun va shakl jihatdan sinonimik hamda omonimik munosabatga kirisha olishi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, tibbiy perifrazalar, publitsistik matn, leksik-semantik ma'no, qardosh bo'lmagan madaniyat tillari, metafora, metonimiya, qiyosiy tahlil.

Аннотация. В статье рассматриваются факторы формирования медицинских перифраз, в том числе метафора, метонимия, синекдоха. Также показано, что медицинские перифразы могут вступать в синонимические и омонимические отношения по содержанию и форме.

Ключевые слова: языкознание, медицинские перифразы, публицистический текст, лексико-семантическое значение, языки неродственных культур, метафора, метонимия, синекдоха, сравнительный анализ.

Abstract. The article discusses the factors of formation of medical periphrases, including metaphor, metonymy, and synecdoche. Also, it is shown that medical periphrases can enter into a synonymous and homonymous relationship in terms of content and form.

Keywords: linguistics, medical periphrases, journalistic text, lexical and semantic meaning, languages of unrelated cultures, metaphor, metonymy, synecdoche, comparative analysis.

Kirish. XX asrning 50-yillarida dunyo tilshunosligida, xususan, rus tilshunosligida I.Z.Ilina (1954) [5, 162]; V.P.Utkina(1959) [4, 255] lar tomonidan perifrazalarning nutqni boyituvchi, sayqallovchi uslubiy vositalar sirasidagi o'rni, ularning o'ziga yondosh boshqa lisoniy hodisalar va vositalar bilan bog'liq jihatlari tadqiq etilgan. Bundan tashqari perifrazalarning serqirra tabiati jahon tilshunosligida ko'plab tadqiqotlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lganligini, shu bois unga berilgan ta'riflar ham turlicha ekanligini kuzatamiz.

Mavzuning dolzarbligi va hozirgi holati. Tilshunoslikda XX asrning 70-yillaridan boshlab perifrazalarga bo'lgan qiziqish kuchaydi. Rus tilshunosligida dastlab V.P.Grigoryev tadqiqotlarida so'z~obraz~denotat munosabatlari nuqtai nazaridan lingvistik muammo sifatida “poetik nutqni hosil qilishning eng yorqin, qiziqarli va istiqbolli usullaridan biri” sifatida tasvirlandi [1, 104]. S.Ya.Makarova tadqiqotlarida perifrazalarning badiiy-ekspressiv xususiyatlari, uslubiy figuralar va troplar tizimidagi o'rni va fe'l birikmali tiplari borasida qimmatli mulohazalar bildirilgan [2, 15]. Xususan, Yu.D.Apresyaning “Tilning ma'nodoshlik vositalari va perifrazalash qoidalari” nomli maqolasida perifraza mohiyatini ochib berishga qaratilgan talqinlar tilshunoslarda alohida qiziqish uyg'otdi.

Tajriba qismi. Perifrazalar nutqni boyitish, jozibador, obrazli, ta'sirchan qilish, nutq mazmunini kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Perifrazalar nutq jarayoni bilan bog'liq muhim stilistik vositalardan biri sifatida nutqqa ulug'vorlik, ko'tarinkilik, ta'sirchanlik beradi va ayni paytda, so'zlovchi yoki yozuvchining nutqqa jiddiy munosabatda bo'lishi, har bir leksik birlikka e'tibor bilan qarashi, tom ma'noda, o'zi ishlatayotgan leksik birliklarga zargarona yondashishni ifodalaydi. Biror narsa, hodisani nomlashda oddiy so'zlardan qochish, muayyan voqelikka pafos berish maqsadida ingliz xalqining mashhur yozuvchiyu shoirlari, jumladan, Charlez Dikens “David Copperfield” asarida, Villiem Shekspir “Sonnet” kitobida, Aleksandr Pop “The Rape of the Lock” asarida, Oskar Uvayld “The Importance of Being Earnest” asarida, S.T.Kolleridj “Kubla Khan” asarida perifrazalardan o'ziga xos mahorat bilan foydalanishgan [6, 144].

Olingan natijalar tahlili. Ma'lumki, so'z ma'nosining ko'chishi metafora, metonimiya, sinekdoxa hamda vazifadoshlik kabi bir qancha usullar orqali yuzaga chiqadi. Bu usullardan, ayniqsa, metafora, metonimiya, sinekdoxa tibbiy perifrazalarning hosil bo'lishida muhim o'rin tutadi [3, 1637]. Ingliz va o'zbek tilida perifrazalarning hosil bo'lish usuliga ko'ra eng ko'p uchraydigan turi metafora yordamida shakllanadigan perifrazalardir. Metafora – narsa va hodisalar mohiyatidagi o'xshashlik asosida biror

leksemaning o'z xususiy ifodalanmishidan boshqa narsa va hodisalarni atash uchun qo'llanilishi hisoblanadi. Tibbiy nutqda, umuman, tilning boshqa vazifaviy uslublarida ham metafora asosida hosil bo'lgan perifraza birliklari ko'p qo'llaniladi [6, 143].

Masalan, Basil has a long history of use, being known as *the royal herb* in ancient Greece, and employed in various cultures not only for culinary but also medicinal and religious use (www.newworldencyclopedia.org). Rayhon giyoh o'simligi barcha xalq tabobatida foydali va shifobaxsh deb topilgani hech kimga sir emas, shuning uchun ham *the royal herb*, ya'ni *qirollar giyohi* deb atashgan.

Keyingi misollarni tahlil etsak: *High blood pressure is often called the silent killer because most people who have it don't have any symptoms* (Mayo Clinic health system, 2020); *High blood pressure, sometimes called the silent killer, is very common in older people and a major health problem* (Mayo Clinic health system, 2020); *The mutated virus is a ticking time bomb* (The Atlantic, 2020). Yuqorida keltirilgan birinchi jumlada qon bosimining oshishi «jim qotil» tarzida, ikkinchi jumlada mutatsiyaga uchragan virus «vaqt bombasi» tarzida metaforik perifraza bilan berilgan.

O'zbek tilida: *Oshqovoq – sariq oltin* («Shifo-info» gazetasi, 2016. 44-son); *Go'zallik, salomatlik va yoshlik ramzi – zaytun* (Mehrigiyo reklamasi matnidan); *Yelbo'g'oz – yol'g'on homiladorlik haqida bilamizmi?* (<https://qomus.info>); *TIA (Tranzistor ishemik ataka) – sezilmas xastalik* («Hamshira» gazetasi, 2016. 6-son).

Qayd etish kerakki, tibbiy perifrazalarning metafora asosida vujudga kelishida shakl o'xshashligi emas, balki rang, muayyan belgi-xususiyat o'xshashligi yetakchi o'rinni egallaydi. Demak, tibbiy nutqqa oid bu dalillar metaforik yo'l bilan hosil qilingan perifrastik birliklar bo'lib, o'zbek hamda ingliz tilida tibbiy perifrazalarning metaforik ko'chim asosida shakllanishi ancha sarmahsul ekanligini ko'rsatadi.

Tibbiy perifrazalarning hosil bo'lishi bo'yicha keyingi o'rinda metonimiya turadi. Metonimiya ifodalanmishlarning o'zaro bog'liqligi, aloqadorligi asosida bir ifodalovchining boshqa ifodalovchi uchun ishlatilishi bo'lib, perifrazalarni hosil qiladi. Metonimiya asosida hosil bo'lgan tibbiy perifrazalar ham nutqda salmoqli o'rin egallaydi. Masalan, *The hospital was crowded with surgically interesting products of the fighting in Africa*. (I. Show) Ushbu gapda *surgically interesting products of the fighting in Africa* metonimiya asosida hosil bo'lgan perifraza bo'lib *the wounded* degan ma'noni anglatadi. Keyingi misol: inglizlar Demokritni *the father of the atomic theory* sifatida, Gippokratni esa *the father of modern medicine*, uning g'oyalarini esa *the gift of knowledge* kabi metonimik perifrazalar bilan atashgan.

O'zbek tilida tibbiy nutqda voqelangan *Kosmetolog – go'zallik yaratuvchi inson* («Shifo-info» gazetasi, 2019. 10-son); *Kasalliklarni (xususan, ichki kasalliklarni) to'g'ri aniqlashi, ularning qanday kechishlarini to'g'ri va aniq tasvirlab berganligi va bu sohadagi qator kashfiyotlari Ibn Sinoni hozirgi zamon terapiyasining asoschisi, deb atashga imkon beradi*. («Tib qonunlari» I jild, 7-b.) kabi sintaktik qurilmalar metonimiyadagi o'zaro bog'liqlik perifrazalarga, jumladan, tibbiy perifrazalarga ham xosligini ko'rsatadi. Tasviriy ifodalardagi bunday bog'liqlik obrazli bo'lishi bilan ajralib turadi.

Keyingi usul sinekdoxa bo'lib, butun orqali qism, qism orqali butunning ifodalanishi perifrazalarning hosil bo'lishida ham alohida o'rin egallaydi. Tibbiy perifrazalarning sinekdoxa asosida vujudga kelish holati ozchilikni tashkil etadi. *Oshqovoq ichidagi dorixona. Oshqovoq urug'ining qurt tozalovchi sifatini barcha biladi. Ammo shu bilan birga bu urug'ning foydalari ko'p*. («Darakchi» gazetasi, 2019. 25-son.)

Keyingi ikki yilda butun dunyo xalqlari og'ir sinovlarni boshdan kechiryapti. Afsuski, koronavirus o'zbek xalqini ham chetlab o'tgani yo'q. Shunday sharoitda bu jarayon ommaviy axborot vositalarida turli perifrazalar bilan ifodalanayotganini kuzatamiz. Shu o'rinda birgina “koronavirus” tibbiy atamasining bir qancha perifrazalar bilan ma'nodoshlik hosil qilgan holda ifodalanishini ko'rishimiz mumkin:

Ingliz tilida COVID-19 kasalligiga nisbatan *coronavirus – invisible enemy, year of pain, fear and heartbreaking loss, threatens the life of the nation, deadly pandemic* kabi perifrazalar sinonimiyasi qo'llanishini uchratish mumkin.

O'zbek tilida: *Koronavirus – insoniyatning yangi dushmani*. («Darakchi» gazetasi, 2020. 42-son); *Tojdor virus jannatmakon o'lkamizga xavf solmoqda*. (O'ZA «Tojdor virus»ni ma'rifat bilan yengamiz. 01.04.2020); *Agar biz bu xatarga beparvo, beg'am bo'lsak, minglab odamlarning sog'lig'i va taqdirini xavf ostiga qo'yamiz, vaziyatimiz yanayam og'irlashadi*. (SH.Mirziyoevning 2020 yil 17 iyuldagi murojaatidan); *Faqat tezkor va muntazam safarbarlik, temir intizom, tibbiy madaniyat, yuksak ongliklik bilangina biz bu ofatga qarshi kurasha olamiz*.

(SH.Mirziyoevning 2020 yil 17 iyuldagi murojaatidan)

Tibbiy perifrazalar orasidagi sinonimiyani “emlash” birligi o'rnida qo'llanuvchi tasviriy ifodalarda ham ko'rishimiz mumkin: *Vaktsinatsiya – viruslarga qarshi qalqon*. («Sug'diyona» gazetasi, 2018. 40-son); *Emlanish – organizm va xastalik uchrashuvi*. («Doktor press» gazetasi, 2017. 6-son)

Ma'lumki, OITS – orttirilgan immunitet tanqisligi sindromi bo'lib, retrovirus guruhiga mansub virus qo'zg'atadigan kasallik. Birgina OITS birligi semasi atrofida birlashib sinonimik munosabatga kirishuvchi tibbiy perifrazalar ham salmoqli o'rin egallaydi. Kuzatamiz: *AIDS – 21st century plague, the global number of people living with HIV has doubled in a decade to exceed 40 million for the first time*. (Independent, November, 2005); *AIDS is the late stage of HIV infection that occurs when the body's immune system is badly damaged because of the virus*. (Hiv.gov, June, 2020); *Apart from being serious diseases in their own right, sexually transmitted disease increase the risk of contracting or transmitting AIDS infection*. (NIH-HIVinfo, August, 2021); *It is responsible for causing the breakdown of the human immune system, known as AIDS*. (Canadian Medical, July, 2018).

O'zbek tilida OITS birligi semasi atrofida birlashadigan sinonimik qator quyidagicha: *OITS – hayot kushandasi*. («Shifo-info» gazetasi, 2011. 47-son); *Ammo hayot go'zalliklarini bir lahzalik huzurhalovatga almashtirib, o'z hayotini zulmat qa'riga g'arq qilayotgan, nafaqat o'zlarini, balki hayotdan umidlari ko'p, begunoh kishilarni ham o'zlari bilan jarlikka tortib ketayotgan kasallik va u bilan kasallangan shaxslarning mavjudligi achinarlidir*. («Shifo-info» gazetasi, 2011. 47-son); *Ha, bu o'sha yillar davomida kurashib kelayotganimiz, global muammoga aylanib ulgurgan OITS balosi*. («Shifo-info» gazetasi, 2011. 47son) kabi.

Tibbiy perifrazalar orasida omonimlik sinonimiya kabi salmoqli bo'lmasa-da, ba'zi misollar mavjudligiga guvoh bo'ldik. Masalan, *Syphilis is sexually transmitted diseases that spread from person to person through sexual activity, including anal, vaginal, or oral sex*. (NIH-HIVinfo, August, 2021); *Apart from being serious diseases in their own right, sexually transmitted disease increase the risk of contracting or transmitting AIDS infection*. (NIH-HIVinfo, August, 2021). Ushbu misollarda jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasallik *sexually transmitted disease* perifrazasi ikkita turli xil viruslar orqali kelib chiqadigan kasalliklarga nisbatan qo'llanilganligini kuzatamiz.

O'zbek tilida ham tibbiy perifrazalar orasida leksik-semantik munosabatlar mavjudligini quyidagi misollar tasdiqlaydi: *Dizenteriya – yuvilmagan mevalar va iflos qo'llar kasalligi. Dizenteriyani iflos qo'llar kasalligi deyishadi. Sababi, gigiena qoidalariga rioya etmaslik, ko'chadan qaytgach yoki ish joyida qo'llarini yuvmay ovqatlanish, kasallanish ehtimolini oshiradi*. («Darakchi» gazetasi, 2019.16-son); *Gepatit A – kir qo'llar kasalligi*. («Darakchi» gazetasi, 2019.21-son)

Yuqorida keltirilgan misollarning har ikkalasida ham qo'l yuvilmasligi natijasida kelib chiquvchi kasallik ma'nosini anglatuvchi *iflos (kir) qo'llar kasalligi* tasviriy ifodasi qo'llanilgan. Biz uchun g'oyatda muhim bo'lgan jihat ayni tibbiy perifraza ikki xil, mutlaqo bir-biridan farq qiluvchi (birinchisida – *dizenteriya*; ikkinchisida – *gepatit A*) kasalliklarni tasviriy ifodalab kelganligidir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, tasviriy ifodalar, ya'ni perifrazalar adresatning voqelikni, predmetni qayta nomlash ehtiyoji sababli vujudga kelgan so'zlarning funktsional-semantik manodoshlari tarzida mavjud. Tasviriy ifodalar matnda takrorning oldini olish bilan birga muloqot vakillariga estetik zavq berishi shubhasiz. Shuningdek, tibbiy perifrazalarning hosil bo'lishida ma'no ko'chish – metafora, metonimiya, sinekdoxa hamda vazifadoshlik kabi bir qancha usullar muhim o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Григорьев В.П. К проблеме перифразы // Сборник докладов и сообщений лингвистического общества. – Калинин, 1974. – С. 104 -114.
2. Kobilova A.B. Lingua-cultural aspects of medical periphrases of English language // *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. ISSN (Online): 2249-7137, Vol.12, Issue 05, 30-May 2022. P. 15-20.
3. Kobilova Aziza Bakhridinovna. Some considerations about periphrases // *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. ISSN (Online): 2249-7137, Vol.11, Issue 2, 30-February 2021. –P. 1637-1640. (Impact Factor (SJIF. 2021) – 7.492).
4. Kobilova A.B. Periphrases used in medical texts and their characteristics (on the example of english and uzbek languages) // *Proceedings of Global Technovation 4th International Multidisciplinary Scientific Conference*. – Paris, France, 2021. – P. 255-257.
5. Kobilova Aziza Bakhridinovna. Semantic and lingua-cultural features of English and Uzbek medical periphrases // *International Journal on Integrated Education*. ISSN (Online): 2620-3502, Vol.5, Issue 6, 6-June 2022. P. 162-167.
6. Kobilova Aziza Bakhridinovna. The use of the medical periphrases of the Uzbek and English languages in journalistic texts // *JournalNX: A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*. ISSN (Online): 2581-4230, Vol.7, Issue 6, 30-June 2021. –P. 143–150. (Impact Factor (SJIF. 2021) – 7.22).